Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320147

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

TASHABBUSLI BYUDJETLASHNING INFRATUZILMAVIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

MIRZAYEV XURSANMUROD EGAMBERDIYEVICH
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchisi
E-mail: xursanmurodmirzayev9@gmail.com
ORCID: 0009-0004-3489-3916

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tashabbusli byudjetlash tizimining infratuzilma rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Ushbu mexanizm fuqarolar ishtirokini kengaytirish orqali infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshiradi. Tadqiqotda O'zbekiston va xalqaro tajriba asosida tizimning samaradorligi hamda davlat moliyaviy boshqaruvi bilan bog'liqligi o'rganilib, uning infratuzilmani modernizatsiya qilish va mahalliy boshqaruvni yaxshilashdagi roli asoslab beriladi. Shuningdek, tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *tashabbusli byudjetlash, infratuzilma rivojlanishi, fuqarolar ishtiroki, mahalliy moliyalashtirish, byudjet shaffofligi, davlat moliyasi, samaradorlik, iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma modernizatsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.*

Tashabbusli byudjet - fuqarolarning davlat byudjeti mablag'larini taqsimlashda bevosita ishtirok etishini ta'minlovchi demokratik mexanizm bo'lib, ular loyihalarni taklif qilish va ovoz berish orqali moliyaviy qarorlarda qatnashadi. Ushbu tizim ilk bor 1989-yilda Braziliyaning Porto Alegre shahrida joriy etilgan va bugungi kunda keng tarqalgan. So'nggi yillarda uning qo'llanilishi sezilarli darajada oshib, masalan, Yevropada 2022-yilda 4500 dan ortiq holatlar qayd etilgan. [1]. Fransiyada 2022-yilda 400 ta munitsipalitetda tashabbusli byudjet joriy etilgan bo'lib, bu 2021-yildagi 249 ta ko'rsatkichdan ancha yuqori. Ushbu mexanizm fuqarolarga mahalliy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda bevosita ishtirok etish imkonini berib, ularning jamoatchilik ehtiyojlariga mosligi hamda mablag'larning samarali va shaffof taqsimlanishini ta'minlaydi. Tadqiqotlar bunday loyihalar aholining talablariga ko'proq mos kelishini va davlat boshqaruviga ishonchni oshirishini ko'rsatadi. Natijada, tashabbusli byudjet infratuzilma rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlilda O'zbekistonda tashabbusli byudjetlash doirasida amalga oshirilgan loyihalar statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqiladi. Mazkur tizim 2019-yilda joriy etilib, 2021-yildan boshlab faol rivojlanmoqda. Xususan, 2024-yilning ikkinchi mavsumida 9 milliondan ortiq fuqaro ishtirok etib, 2,1 trillion so'mdan ziyod qiymatdagi 1772 ta loyiha moliyalashtirilgan. 2023-yilda mahallalar infratuzilmasi uchun ajratilgan 4 trillion so'mning muhim qismi aynan fuqarolar

Published: 05.06.2026

Cite this article: Mirzayev Xursanmurod Egamberdiyevich (2026). Tashabbusli byudjetlashning infratuzilmaviy samaradorlikka ta'siri. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320147

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

tanlagan loyihalarga yo‘naltirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tashabbusli byudjet orqali amalga oshirilgan loyihalarning 85% muvaffaqiyatli yakunlangan bo‘lib, bu tizimning infratuzilma rivojlanishiga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, u fuqarolarning davlat boshqaruviga ishonchi va ijtimoiy faolligini oshirib, mahalliy hamkorlikni mustahkamlamoqda.

Qashqadaryo viloyati misolida yo‘llarni ta’mirlash, ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash, ta’lim va tibbiyot muassasalarini modernizatsiya qilish kabi loyihalar amalga oshirilgan. Jumladan, Qarshi shahrida yo‘l va yoritish tizimlari yaxshilangan, Koson tumanida suv ta’minoti yangilangan, Muborak va G‘uzor tumanlarida transport va ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilgan. Umuman, tashabbusli byudjetlash infratuzilma rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida fuqarolar ishtirokini kengaytirish, shaffoflik va monitoringni kuchaytirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish ushbu tizim samaradorligini yanada oshiradi.

Hududlar kesimida infratuzilma loyihalariga ajratilgan mablag‘lar quyidagicha ko‘rinishga ega:

Chiroqchi tumani: 2024-yil 1-mavsumida 16,244.6 mln so‘m, 2024-yil 2-mavsumida 10,603.0 mln so‘m, 2025-yil 1-mavsumida 20,067.0 mln so‘m. Kitob tumani: 2024-yil 1-mavsumida 19,307.5 mln so‘m, 2024-yil 2-mavsumida 13,138.0 mln so‘m, 2025-yil 1-mavsumida 20,666.0 mln so‘m. Koson tumani: 2024-yil 1-mavsumida 16,936.4 mln so‘m, 2024-yil 2-mavsumida 14,515.0 mln so‘m, 2025-yil 1-mavsumida 22,408.0 mln so‘m.

Tahlillarga ko‘ra, 2025-yilda tashabbusli byudjetlash bo‘yicha ajratiladigan mablag‘lar sezilarli oshadi. Koson, Kitob va Yakkabog‘ tumanlari eng ko‘p mablag‘ ajratiladigan hududlar bo‘lib qolishi kutilmoqda. Muborak, Nishon va Mirishkor tumanlariga ajratilayotgan mablag‘ nisbatan kamligicha qolmoqda.

Tashabbusli byudjetlash orqali ajratilgan mablag‘larning samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar berilishi mumkin:

1. Mahalliy infratuzilma loyihalarini ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash.
2. Kam moliyalashtirilayotgan hududlarga ko‘proq e’tibor qaratish.
3. Fuqarolar ishtirokini oshirish va mablag‘larni shaffof taqsimlash.
4. Mavsumiy farqlarning oldini olish uchun byudjet rejasini optimallashtirish.

Ushbu tahlil Qashqadaryo viloyatidagi tashabbusli byudjet jarayonining dolzarb jihatlarini o‘rganish va kelajakda yanada samarali boshqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashabbusli byudjet infratuzilmani rivojlantirishda samarali moliyaviy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tashabbusli byudjet jarayoni fuqarolarning davlat moliyaviy qarorlarida ishtirokini oshirib, resurslarning aniq va samarali taqsimlanishiga yordam beradi.

O‘zbekistonda tashabbusli byudjet mexanizmi joriy etilgandan beri infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan mablag‘ hajmi sezilarli darajada oshdi, fuqarolar ishtiroki faollashdi va loyihalarning natijadorligi yuqori bo‘ldi. Tashabbusli byudjet infratuzilma loyihalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 2023-2024-yillarda ajratilgan mablag‘larning 60% dan ortig‘i infratuzilmani yaxshilashga yo‘naltirildi. Fuqarolar ishtiroki sezilarli darajada oshdi. 2024-yilda tashabbusli byudjet jarayonida 9 milliondan ortiq fuqaro qatnashgan va 85% loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar yaxshilandi. Tashabbusli byudjet orqali mahalliy infratuzilma loyihalarining sifati oshib, davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonch kuchaydi. Shaffoflik va samaradorlik muhim omillar sifatida ko‘rinmoqda. Ochiq ovoz berish va monitoring tizimlarining takomillashuvi loyihalarning natijalarini yaxshiladi.

Tashabbusli byudjet amaliyotining samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Aholining tashabbusli byudjet jarayoniga jalb etilishini oshirish uchun ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalardan faol foydalanish.
- Moliyaviy shaffoflikni oshirish va loyihalarning real ta’sirini aniqlash uchun mustaqil nazorat mexanizmlarini joriy etish.
- Tashabbusli byudjet jarayonida moliyalashtirilayotgan loyihalarning hududiy va tarmoqli balansini ta’minlash.
- Elektron ovoz berish tizimlarini joriy etish va jamoatchilik muhokamalarini kengaytirish orqali aholining qatnashuvchanligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, tashabbusli byudjet infratuzilmani rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri bo‘lib, samaradorligini oshirish maqsadida strategik yondashuv zarur. Ushbu tizimni yanada takomillashtirish orqali mahalliy infratuzilma barqaror va uzoq muddatli rivojlanishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Esther Snippe and Silvia Ellena. Euractiv.com Participatory budgets: growing trend, little impact? 26.01.2023*
2. *Private Participation in Infrastructure (PPI) 2023. Annual Report.*
3. *Yves Cabannes. The impact of participatory budgeting on basic services: municipal practices and evidence from the field. Vol 27 No 1 April 2015.*
4. *stat.uz*
5. *worldbank.org*
6. *openbudget.uz*

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

O‘ZBEKISTON VA YEVROPA ITTIFOQI MISOLIDA YASHIL ENERGETIKA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMLARINI SOLISHTIRISH

JABBOROV XURSHID TO‘RAMUROD O‘G‘LI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar kafedrasi
Mustaqil izlanuvchisi

Global iqlim o‘zgarishlarining tez sur’atlarda kuchayishi, uglerod izini kamaytirish zarurati hamda resurslarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash hozirgi vaqtda ko‘plab davlatlarning iqtisodiy siyosatida asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, energetika sohasi global issiqxona gazlari chiqindilarining katta qismini tashkil etishi sababli, yashil energetikaga o‘tish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, mamlakatlar miqyosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ularni moliyalashtirish masalalari strategik ahamiyatga ega bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston iqtisodiy-energetika tizimida tabiiy gazga yuqori darajada qaramlik saqlanib qolmoqda: 2019 yilda mamlakatda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining taxminan 85 foizi gazga asoslangan termoelektr stansiyalari hisobiga to‘g‘ri kelgan. Bu holat mamlakatning energetik xavfsizligi va atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish nuqtai nazaridan jiddiy muammo yaratmoqda, chunki gaz resurslari cheklangan va global bosim ostida kamaytirilishi talab etilmoqda. [1] Shu bilan birga, 2018 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan quvvat mamlakat energiya iste’molining atigi 3 % ini tashkil etgan. [1] Biroq, respublika hukumati joriy va kelgusi yillarga mo‘ljallangan strategiyalar orqali bu nisbatni tubdan oshirishni maqsad qilgan: masalan, 2024 yilda mamlakat 2030 yilga borib qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 27 GW gacha jalb qilish va elektr energiya ishlab chiqarishda 40 %gacha RES hissasini yaratish choralarini e’lon qilgan. Shuningdek, 2030 yilga qadar GHG intensivligini 2010 yillarga nisbatan 35 %gacha kamaytirish maqsadi qo‘yilgan. [2] Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun, odatiy moliyaviy manbalar etarli bo‘lmasligidan kelib chiqib, zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish zarurati yuqori.

So‘nggi o‘n yillikda yashil energetika va barqaror moliyalashtirish xalqaro ilmiy e’tiborda bo‘lib kelmoqda. Zhang va Yang (2021) yashil moliyalashtirishni nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida ko‘rishadi. OECD (2023) hisobotiga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlar